



11-sinf. BSB-5 (1-variant)

____-sonli umumta'lim maktabi ____-sinf o'quvchisi _____

Quyida mavzulardan birini tanlang. Internet va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib tanlagan mavzuingiz yuzasidan "Biologik esse" yozing. Muammoga o'z munosabatingizni bildiring. Muammoning yechimi yuzasidan taklif bering.

1. Yirik shaharlarda atmosferaning avtotransport vositalari tomonidan ifloslantirilishi bilan bog'liq muammolarni hal etish choralari.
2. Kamchiqindi va chiqindisiz texnologiyalar.
3. Tabiatdan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish.
4. Avtomobil – atmosferani kimyoviy ifloslantiruvchi manba.
5. Avtomobil transporti: muammolar va ularni hal qilish yo'lari.

Quyidagi maqolani o'qing. O'z shahringiz, mahallangizda chiqindilarni bartaraf etish boradidagi ishlar haqida 3ta fikr yozing. O'z shahringiz, mahallangizda chiqindilarni bartaraf etish uchun siz qanday ishni amalga oshirishni taklif etgan bo'lar edingiz. 3 ta taklif yozing.



Ko'chalardagi chiqindilardan tortib, to mukammal saralashgacha: Chiqindilarga qarshi kurashda xalqaro tajriba. FRANSIYA



Fransiya

Mamlakatda anchadan buyon chiqindilarni saralab yig'ish tizimi mavjud. Chiqindi qutilari turli rangdagi qopqoqlar bilan belgilangan. Oq qopqoqli quti shisha uchun, sariq rangdagisi qayta ishlanadigan chiqindilar uchun mo'ljallangan. Chiqindini olib chiqib ketuvchi tashkilot xodimlari ushbu konteyner ichidagi chiqindi tarkibini ko'ra olishlari uchun aholi mazkur konteynerga tashlanadigan chiqindini ochiq holda to'kib tashlashi kerak. Aks holda xizmat ko'rsatuvchi tashkilot o'sha konteynerdagi chiqindini olib chiqib ketmaydi. O'z navbatida mas'uliyatsiz fuqaroni qo'shnilar bilan kelishishdek jiddiy javobgarligi bo'ladi. Negaki uning kasriga qolgan boshqa qo'shnilarning chiqindisi olib chiqib ketilmaydi. Jigarrang qopqoqli rangdagi konteynerga yoqishga yoki chiqindi poligoniga yuborishga mo'ljallangan qolgan barcha chiqindilar tashlanadi. Farmatsevtika mahsulotlarini, masalan, eski dorilar va ularning o'ramlari, termometr va boshqalar qayta ishlanadigan chiqindilarga yoki chiqindi poligonlariga tashlanmasligi uchun ularni hoxlagan dorixonaga topshirish mumkin.

Ayrim hududlarda konteynerlar soni ko'proq bo'lishi mumkin. Plastik mahsulotlar, qog'oz-karton va daraxtlar uchun alohida konteynerlar ham qo'yilgan bo'lishi mumkin. Bu o'rinda butunboshli plastikni to'liq qayta ishlash mumkin emas.



Nostandat chiqindilar uchun maxsus qabul punktlari mavjud bo'lib, ularni aholining o'zi olib borishi zarur. Bunday punktlarning soni **4,5 ming** ta atrofida. Bunday turdagi chiqindilarni belgilanmagan joyga tashlash uchun jarimalar xavfi bor.

Frantsiya uchun chiqindilar muammosi nafaqat ekologik, balki siyosiy tusga ega muammo hisoblanadi. Yevropa ittifoqida ekologiyani muhofaza qilish sohasidagi asosiy chaqiriq plastmassani qayta ishlash hisoblanadi. Yevropa ittifoqi **2018** yilning may oyida qoidalarni yangiladi. Yangilangan qoidalar muvofiq zaxarli plastmassani muqobil materiallarga almashtirish zarur. Yevrostat ma'lumotlariga ko'ra, Frantsiya bu borada qo'shni mamlakatlarga nisbatan pastroq. Frantsiya ishlab chiqariladigan plastmassaning **25** foiziga yaqinini qayta ishlaydi. Bu esa Germaniya hamda Niderlandlarga nisbatan ikki baravar kamdir. Ammo hukumat mahalliy supermarketlarda bir martalik plastik paketlardan foydalanishni taqiqladi. Negaki, Frantsiya **2025** yilga qadar butun hududi bo'ylab faqat qayta ishlangan plastmassadan foydalanish bilan bog'liq majburiyatini bajarishi kerak.

Butun boshli chiqindilarni qayta ishlash va ikkilamchi xom ashyo sifatida ishlatib bo'lmaydi. Shu sababli hozirgi kunda Frantsiyada qayta ishlanmaydigan chiqindilarni yoqish uchun **130** ga yaqin zavodlar mavjud. O'z o'rnida yoqishda hosil bo'lgan kul yo'l qurilishida, jarayonda hosil bo'ladigan issiqlik esa yaqin orada joylashgan uylarni issiqlik bilan ta'minlashda foydalaniladi. Ayrim korxonalar yer ostida joylashgan bo'lib, ular tutun, badbo'y xid tarqatmaydigan texnologiyalardan foydalanidilar. Jahonning boshqa mamlakatlari kabi Frantsiyada ham chiqindilarning asosiy katta qismi yirik korporatsiyalar ulushiga to'g'ri keladi. Hukumat biznes-tuzilmalarining mas'uliyatini oshirish maqsadida yirik miqdordagi jarimalar hamda mas'uliyatli korxonalar uchun imtiyozlar ko'rinishida rag'batlantirish mexanizmini ko'zda tutuvchi tizimni yo'lga qo'ygan.

Chiqindilar bilan bog'liq qoidalarni buzganlik uchun jarimalar jismoniy shaxslar uchun ham belgilangan – **€35**. Yo'l yuzida qoldirilgan chiqindilar uchun jarima miqdori **€70** ni tashkil etadi. Ammo bu jarima miqdori mamlakatning turli shaharlarida turlicha bo'ladi. Shu bilan birga masalan u yoki bu dalalarda qoldirib ketilgan eski divan uchun **€150** jarima to'lanishi hamda avtomashina konfiskatsiya qilinishi mumkin. Yirik hajmdagi mebel yoki texnikani to'g'ri utilizatsiya qilish uchun munitsipal xizmatga murojaat qilish mumkin. Ular esa uni maxsus transport yordamida olib chiqib ketadi.



Baholash mezonlari

Topshiriq	Maksimal ball	Izoh
Esse uchun	6 ball	
O'z shahringiz, mahallangizda chiqindilarni bartaraf etish boradidagi ishlar haqida 3ta fikr yozing.	2 ball	
O'z shahringiz, mahallangizda chiqindilarni bartaraf etish uchun siz qanday ishni amalga oshirishni taklif etgan bo'lar edingiz. 3 ta taklif yozing.	2 ball	